TRANSPORT VOSITASINI IJARAGA BERISH SHARTNOMASI

№ ____

Toshkent sh. "__" _____ 20__ y.

"_____" MChJ (STIR _____), keyingi o‘rinlarda "Ijaraga beruvchi", nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor _____, bir tomondan, va _____ (STIR _____), keyingi o‘rinlarda "Ijarachi", nomidan _____ asosida ish yurituvchi _____, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ijaraga beruvchi _____ rusumli, davlat raqami _____, texpasport _____ bo‘lgan transport vositasini haydovchisiz/haydovchi bilan ijaraga beradi.

2.1. Ijara haqi oyiga _____ so‘m. Yoqilg‘i, yo‘l xarajatlari Ijarachi hisobidan. Transport vositasi qabul-topshirish dalolatnomasi bilan topshiriladi.

TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

Majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda tomonlar "Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnoma-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi Qonun va Fuqarolik kodeksiga muvofiq javobgar bo‘ladi. To‘lov kechiktirilganda kechiktirilgan har bir kun uchun to‘lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin muddati o‘tgan to‘lov summasining 50% idan ko‘p bo‘lmagan penya to‘lanadi. Majburiyat bajarilmaganda — bajarilmagan qism qiymatining 0,5% miqdorida, lekin 50% dan ko‘p bo‘lmagan penya.

FORS-MAJOR

Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari (tabiiy ofat, urush, davlat organlarining qarorlari) majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qilsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi; bu haqda 5 kun ichida yozma xabar beriladi.

NIZOLARNI HAL ETISH

Nizolar muzokaralar yo‘li bilan, pretenziya tartibida (javob muddati — 15 kun), kelishuvga erishilmasa — iqtisodiy sudda hal etiladi.

YAKUNIY QOIDALAR

Shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va "__" _____ 20__ yilgacha (majburiyatlar to‘liq bajarilguncha) amal qiladi. Shartnoma Didox orqali elektron raqamli imzo bilan imzolangan bo‘lsa, qog‘oz nusxa bilan teng kuchga ega. O‘zgartirishlar qo‘shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

TOMONLARNING REKVIZITLARI

Ijaraga beruvchi	Ijarachi

Nomi, manzili, STIR, h/r, bank, MFO, QQS to‘lovchi kodi, telefon — har bir tomon bo‘yicha.

Ijaraga beruvchi: _____ M.O. Ijarachi: _____ M.O.